O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOJXONA QIYMATINI ANIQLASH VA NAZORAT QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING THE MECHANISM FOR DETERMINING AND CONTROLLING CUSTOMS VALUE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ОПРЕДЕЛЕНИЯ И КОНТРОЛЯ ТАМОЖЕННОЙ СТОИМОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Uzoqov Alisher Abduraimovich
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti katta o‘qituvchisi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23798443

Annotatsiya. Ushbu maqolada import tovarlarining bojxona qiymatini baholash va uni nazorat qilish tizimini isloh qilish yuzasidan uchta muhim yo‘nalish tahlil etiladi: qiymat tarkibiga kiruvchi alohida xarajatlar bo‘yicha oldindan qaror qabul qilish amaliyotini kengaytirish, deklaratsiyalangan narxga nisbatan asosli shubha tug‘ilganda dalillarni tekshirish standartini belgilash hamda indikativ narxlar mexanizmidan foydalanishning aniq protsessual chegaralarini qonunan mustahkamlash. Milliy qonunchilik normalari JSTning bojxona baholashiga oid bitimi, AQSH va Yevropa Ittifoqi tajribasi bilan solishtirilib, qonunchilikka kiritish uchun tayyor huquqiy tahrirlar taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: bojxona qiymati, bitim qiymati, oldindan qaror, asosli shubha, indikativ narx, bojxona nazorati, xavflarni boshqarish.

Abstract: This article examines three key areas for reforming the system of customs valuation and control of imported goods: expanding the practice of issuing advance rulings on specific costs included in customs value; establishing standards for the examination of evidence when reasonable doubts arise regarding the declared value; and legally defining clear procedural limits for the use of indicative prices. The provisions of national legislation are comparatively analyzed in light of the World Trade Organization (WTO) Agreement on Customs Valuation and the practices of the United States and the European Union. Based on this analysis, specific legislative amendments and proposed legal provisions are developed to improve the national customs valuation framework.

Keywords: customs value, transaction value, advance ruling, reasonable doubt, indicative price, customs control, risk management.

Аннотация: В статье рассматриваются три ключевых направления реформирования системы определения и контроля таможенной стоимости импортируемых товаров: расширение практики принятия предварительных решений в отношении отдельных расходов, включаемых в таможенную стоимость; установление стандартов проверки доказательств при возникновении обоснованных сомнений в достоверности заявленной стоимости; а также законодательное закрепление чётких процессуальных пределов использования механизма индикативных цен. Проведён сравнительно-правовой анализ положений национального законодательства с учётом

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Соглашения Всемирной торговой организации по таможенной оценке и практики Соединённых Штатов Америки и Европейского союза. По результатам исследования разработаны конкретные предложения по внесению изменений и дополнений в национальное законодательство, направленные на совершенствование механизма определения и контроля таможенной стоимости.

Ключевые слова: таможенная стоимость, стоимость сделки, предварительное решение, обоснованное сомнение, индикативная цена, таможенный контроль, управление рисками.

Bojxona to‘lovlarini to‘g‘ri hisoblab chiqish, eng avvalo, tovarning bojxona qiymati qanchalik adolatli va qonuniy aniqlanganiga bog‘liq. Bu masala bir tomondan davlat budjetiga tushumlarni ta’minlashdek fiskal vazifa bo‘lsa, ikkinchi tomondan tadbirkorlarning tashqi savdodagi haqiqiy xarajatlari va biznes muhitining barqarorligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Xalqaro amaliyotda, xususan, JSTning GATT VII moddasini qo‘llashga doir qoidalarida birinchi usul — ya’ni olib kirilayotgan tovarning bitim qiymati asosiy va ustuvor mexanizm hisoblanadi [3].

O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi va Vazirlar Mahkamasining 160-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda ushbu usullarning huquqiy poydevori yaratilgan [1][2]. Biroq amaliyotda bojxona organi bilan tadbirkor o‘rtasidagi eng ko‘p kelishmovchiliklar aynan qiymatni baholash va nazorat qilish jarayonida yuzaga keladi. Shu bois ushbu maqolaning maqsadi amaldagi qoidalarni shunchaki qayta bayon qilish emas, balki nizolarni kamaytirishga qaratilgan muhim protsessual yechimlarni taklif etishdan iborat.

Ish jarayonida qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, JSTning Bojxona baholash qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan 6.1-son qarori asos qilib olindi. Mazkur qaror deklaratsiyalangan narx bo‘yicha shubha tug‘ilganda importyordan qo‘shimcha ma’lumot so‘rash, uning vajlarini eshitish va qarorni faktlar bilan asoslash tartibini belgilab beradi [4]. Shuningdek, Yevropa Ittifoqining 2015/2447-sonli reglamentidagi 140-modda va AQSH bojxona amaliyoti o‘rganildi [6].

Tadqiqot bevosita normativ baza tahliliga tayangan bo‘lib, sud amaliyoti yoki ichki nizolarning rasmiy statistik raqamlari to‘liq oshkor etilmagani bois, asosiy urg‘u takliflarning huquqiy mantig‘iga qaratildi.

Qiymat elementlari bo‘yicha oldindan qaror qabul qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish

Tadbirkor chet eldan tovar sotib olish bo‘yicha shartnoma imzolayotganda, ko‘pincha murakkab to‘lovlar — masalan, royalti, litsenziya haqlari, transport yoki sug‘urta xarajatlari bojxona qiymatiga qo‘shiladimi yoki yo‘qmi, degan noaniqlikka duch keladi. Bu esa tovar chegaraga kelganida kutilmagan qayta hisob-kitoblar va qo‘shimcha to‘lovlarga sabab bo‘ladi. AQSH bojxonasida bu masala azaldan oldindan rasmiy qaror berish orqali samarali hal etib kelinadi [7].

Bizdagi amaliyotda tovar tasnifi yoki kelib chiqishi bo‘yicha oldindan qaror olish mexanizmi bor, ammo bojxona qiymatining huquqiy elementlari bo‘yicha bu tartib to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. Taklif shundan iboratki, importyor tovar kirib kelguniga qadar tegishli hujjatlarni taqdim etib, muayyan xarajatlarning qiymatga kiritilishi masalasida bojxonadan majburiy kuchga ega rasmiy qaror olishi mumkin bo‘lsin. Bunda bojxona aniq bir dollar yoki so‘m miqdorini emas, balki aynan hisoblash tartibi va huquqiy yondashuvini oldindan mustahkamlab beradi.

Shu munosabat bilan Nizomga quyidagi mazmundagi o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish taklif etiladi:

“Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi tovarni bojxona hududiga olib kirishdan oldin bojxona qiymatini aniqlash usulining qo‘llanilishi, qo‘shimcha hisoblashlar, intellektual mulk obyektlaridan

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

foydalanganlik uchun sotib oluvchi baholanayotgan tovarni sotish sharti sifatida bevosita yoki bilvosita to‘lashi kerak bo‘lgan litsenziya to‘lovlari (royalti) va boshqa to‘lovlarning bojxona qiymatiga kiritilishi masalalari bo‘yicha oldindan qaror qabul qilishni so‘rash huquqiga ega. Qaror murojaatda ko‘rsatilgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan holatlarga nisbatan tatbiq etiladi. Oldindan qaror tovarning qat’iy bojxona qiymatini belgilamaydi”.

“Asosli shubha” va “isbotlangan fakt” tushunchalarini qonunan ajratish

Bojxona nazorati jarayonida inspektorda deklaratsiyalangan narx bo‘yicha shubha paydo bo‘lishi — bu hali tadbirkor narxni sun’iy pasaytirgan, degan xulosani anglatmaydi. Amaliyotdagi asosiy kamchilik shundaki, shubha tug‘ilishi bilanoq bitim qiymati rad etilib, keyingi usullarga o‘tib ketish holatlari uchrab turadi. Vaholanki, JSTning 6.1-son qarori importyorga o‘zi taqdim etgan narxni isbotlash, hujjatlar va tushuntirishlar berish imkonini to‘liq kafolatlashni talab qiladi [4].

Shubha qandaydir faraz emas, balki aniq belgilarga — hujjatlardagi ochiq ziddiyatlar, bank to‘lovi bilan invoys o‘rtasidagi nomutanosiblik kabi faktlarga tayanishi shart. Bundan tashqari, inspektor shubhaning sababini elektron tizimda ochiq qayd etishi va tadbirkorga nima uchun bu hujjatlar so‘ralayotganini tushuntirishi lozim.

Shu munosabat bilan Nizomga quyidagi mazmundagi o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish taklif etiladi:

“Bojxona organi deklaratsiya qilingan bojxona qiymatiga nisbatan asosli shubha paydo bo‘lganida uni keltirib chiqargan aniq holatlarni elektron axborot tizimida qayd etadi. Deklarantga yuboriladigan xabarnomada shubha sabablari, talab etilayotgan hujjatlarning ushbu sabablarga aloqadorligi va tushuntirish berish tartibi ko‘rsatiladi. Qiymatni rad etish to‘g‘risidagi qarorda taqdim etilgan dalillarning bahosi va keyingi baholash usuliga o‘tish asoslari bayon etiladi”.

Indikativ narxlar tizimidan foydalanishning protsessual chegarasini belgilash

Amaldagi 160-son Nizomda indikativ ko‘rsatkichlardan mustaqil baholash usuli sifatida foydalanish mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan [2]. Ammo bu cheklovni shunchaki qog‘ozda takrorlash yetarli emas. Muammo shundaki, axborot tizimida narx tafovuti bo‘yicha «qizil yo‘lak» yoki xavf signali chiqqandan keyin inspektor aynan qanday ketma-ketlikda harakat qilishi kerakligi qat’iy standartlashtirilmagan.

Tovarning arzonroq sotib olingani har doim ham qonunbuzilish bo‘lavermaydi: bu katta hajmdagi partiya xaridi, mavsumiy chegirma, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqaruvchidan olingani yoki Incoterms bo‘yicha yetkazib berish shartlarining o‘ziga xosligi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun dasturiy xavf signali inspektor o‘tkazadigan individual tahlil va dalillarni baholash ishining o‘rnini egallab olmasligi zarur.

Shu munosabat bilan Nizomga quyidagi mazmundagi o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish taklif etiladi:

“Indikativ narx yoki ehtimoliy narx diapazoni asosida xavf aniqlangan taqdirda, axborot tizimida xavf identifikatori, taqqoslash mezonlari va tekshiruv natijalari qayd etiladi. Indikativ narx bilan deklaratsiya qilingan qiymat o‘rtasidagi tafovutning o‘zi bojxona qiymatini tuzatish uchun yetarli dalil hisoblanmaydi. Qaror qabul qilishda tovar xususiyatlari, bitim shartlari va deklarant taqdim etgan hujjatlar individual baholanadi”.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, taklif etilayotgan o‘zgarishlarning bosh g‘oyasi — baholash usullarini tubdan o‘zgartirish emas, balki ularni qo‘llash jarayonida huquqiy kafolatlarni mustahkamlashdir. Tovar olib kirilgunga qadar qaror olish imkoniyati noaniqlikni yo‘qotadi, shubha va dalillarning farqlanishi esa qarorlar sifatini oshiradi. Indikativ narxlardan protsessual chegaralar doirasida

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

foydalanish bojxonaning qonuniy nazorat kuchini saqlab qolgan holda, mamlakatda investitsiya va tashqi savdo muhitining ochiqligi hamda bashorat qilina olishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
2. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-apreldagi 160-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom.
3. WTO Agreement on Implementation of Article VII of GATT 1994.
4. WTO Committee on Customs Valuation, Decision 6.1.
5. Regulation (EU) No 952/2013 (Union Customs Code).
6. Commission Implementing Regulation (EU) 2015/2447.
7. US Customs and Border Protection: Rulings and Legal Decisions.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.